

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**1-2022**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

#### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

#### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'oz.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,**  
**2022.**

<b>Sh.Hakimova</b> O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari .....	113
<b>J.Bo'tayev</b> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar .....	118
<b>I.Bohodirov, B.Jurayev</b> Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim .....	123
<b>A.Yuldashev</b> Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
<b>B.Ataxanov</b> Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	136
<b>Sh.Husanova</b> Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari .....	140
<b>N.Komilov</b> Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
<b>G'.Raxmonov</b> Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
<b>O.Abdunosirova</b> Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida .....	155
<b>Z.Abdullayev</b> Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya .....	158
<b>S.Isroilova, G.Karimova</b> Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Z.Tashtemirova, E.Gizdulin</b> Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari .....	167
<b>N.Sidikova</b> Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari .....	173
<b>A.Eshdavlatova</b> Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi .....	177
<b>J. Xalliyev</b> Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
<b>E.Qurbonova</b> Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot .....	186

## TILSHUNOSLIK

<b>K.Yusupova</b> Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
<b>Yu.Shuxratova, A.Mamajonov</b> O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
<b>A.Yuldashev</b> So'z yasalanishining kognitiv aspekti .....	198
<b>X.Dusmatov</b> O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
<b>N.Umarova, D.Madazizova</b> Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
<b>G.Majidova</b> Til darslarida madaniyatni qamrab olish .....	215
<b>L.Yo'ldosheva</b> Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish .....	220
<b>N.Mamajonova</b> Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish .....	224
<b>G.Isakova</b> "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
<b>Z.Alimova</b> Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida .....	233
<b>И.Попубай</b> Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

**ISKANDAR MIRZO – MADANIYAT VA SAN’AT HOMIYSI SIFATIDA****ИСКАНДАР МИРЗА КАК ПОКРОВИТЕЛЬ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА****ISKANDAR MIRZO IS A DEFENDER OF CULTURE AND THE ART****Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi<sup>1</sup>****<sup>1</sup> Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi**

– Farg’ona davlat universiteti O’zbekiston tarixi kafedrasida tayanch doktoranti.

**Annotatsiya**

Maqolada temuriy shahzoda Iskandar mirzoning madaniy hayotdagi ishtiroki va homiylik faoliyati masalasi tadqiq etilgan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan Iskandar mirzo faoliyatining o’rganilishi tadqiq etilib, ushbu masalani tadqiq etishga xizmat qiladigan yozma manbalar tahlil qilingan. Shahzoda homiyligi ostida Sheraz va Isfahon shaharlarida ilm-fan, adabiyot, san’atning taraqqiy etishi hamda madaniy muhitning shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan omillar tarixiy manbalarga tayangan holda asoslangan. Temuriylar davri madaniy hayotning taraqqiy etishida Iskandar mirzo faoliyatining ahamiyati ko’rsatib berilgan.

**Аннотация**

В статье рассматривается участие и покровительство тимуридского князя Искандара в культурной жизни. Местные и зарубежные исследователи изучили деятельность Александра Македонского и проанализировали письменные источники, служащие изучению этого вопроса. Под покровительством князя на основе исторических источников изложены факторы, влияющие на развитие науки, литературы, искусства и формирование культурной среды в городах Шероз и Исфahan. Показана роль Александра в развитии культурной жизни Тимуридов.

**Abstract**

The article examines the involvement and sponsorship of the Temurid prince Iskandar in cultural life. Uzbek and foreign researchers have studied the activities of Iskandar Mirzo and analysed the written sources that serve to study this issue. Factors influencing the development of science, literature, art and formation of cultural environment in the cities of Sheraz and Isfahan under the patronage of the prince are based on historical sources. Furthermore, the role of Iskandar Mirzo in the development of cultural life in the Temurid period is emphasized.

**Kalit soʻzlar:** Iskandar mirzo, Milkat Ogʻo, “Uygʻonish davri”, madaniy hayot, F.Keshavarz, “Kitab-i viladat-i Iskandar”, “The Miscellancy of Iskandar Sulton”, Muhammad al-Xalavi, astronomik jadval, Anna Caizzo, Maʼruf Bagʻdodiy, “Iskandar Anonimi”, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, homiylik faoliyati.

**Ключевые слова:** Искандар мирзо, Милькат Ага, «Возрождение», культурная жизнь, Ф.Кешаварз, «Китаб-и виладат-и Искандар», «Сборник Искандар Султан», Мухаммад ал-Халави, астрономическая таблица, Анна Кайццо, Маруф Багдади, «Искандар Анонимы», «Мунтахаб ут-тавориhi Муини», спонсорство.

**Keywords:** Iskandar mirzo, Milkat Aga, “Renaissance”, cultural life, F.Keshavarz, “Kitab-i viladat-i Iskandar”, “The Miscellancy of Iskandar Sultan”, Muhammad al-Khalavi, astronomical table, Anna Caizzo, Maruf Baghdadi, “Iskandar Anonimi”, “Muntahab ut-tavorih Muini”, sponsorship.

**I.KIRISH.**

Amir Temur va temuriylar saltanati oʻz davrining yuksak madaniy taraqqiyotiga erishgan davlatlaridan biri sifatida eʼtirof etilgan. Sulola vakillarining ilm-fan, madaniyatga homiylik qilishi, dunyoviy va diniy fanlarning taraqqiy etishi, adabiyot va sanʼatning gullab-yashnashi, yirik kutubxonalarning bunyod etilishi, ularda Gʻarb va Sharq olimlarining mashhur asarlarini toʻplanishi ham temuriylar davri renessansining muhim belgisidir. Shu boisdan, Amir Temur va temuriylar davrini Oʻrta Osiyo tarixida ikkinchi “Uygʻonish davri” deb, hisoblash mumkin. Bu davrning oʻziga xos xususiyatlaridan biri shuki, temuriy shahzodalar ilm-fan, adabiyot va sanʼatga homiylik qilish bilan cheklanmasdan, bevosita oʻzlari ham ishtirok etgan. Shunday shahzodalardan biri Iskandar mirzo boʻlib, 1399-1400 yillarda Fargʻona ulusini, 1404-1414 yillarda Fors viloyatini boshqargan. Iskandar mirzo ham yetuk shoir va madaniyat homiysi sifatida shuhrat topgan.

**II.ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

Iskandar mirzoning siyosiy va homiylik faoliyati toʻgʻrisida Davlatshoh Samarqandiy, Muiniddin Natanziy, Hofizu Abroʻ, Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir, Fasih Xavofining asarlarida maʼlumotlar uchraydi[1, 2, 3, 4, 5, 6]. Shuningdek, Iskandar mirzoning hukmronlik davri, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi ishtiroki borasida bir qator xorijlik olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Xususan, V.V.

Bartold, Shiro Ando, P.Souček, T.V.Lentz, P.Sousek, Anna Coizzo va boshqalar o'z asarlari va maqolalarida shahzoda faoliyatiga alohida to'xtalib o'tgan[7, 8, 9, 10, 11,12]. F.Kesharvarzning Iskandar mirzoning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asari "Kitab-i viladat-i Iskandar" – "The book of birth of Iskandar" or Iskandar horoscope" nomlari bilan uchraydi. Ushbu asar shahzodaning saroy munajjimlaridan biri bo'lgan Imom ad-Din Mahmud al-Kashi tomonidan 1411 yilda tuzib chiqilgan asronomik jadvali asosida yaratilgan. Fatime Kesharvarz asronomik jadvalni 1984-1986 yillarda ingliz tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik, bu qo'lyozma Sharqiy Hindiston kompaniyasi rahbari Jon X. Xarrington tomonidan 1794 yilda sotib olingan. 1932 yilda esa qo'lyozmani britaniyalik kolleksioner S.Xenri qo'lga kiritib, Angliyadagi "Qadimiy kitoblar va qo'lyozmalar" fondiga topshirgan[13:4 b]. Anna Coizzoning "The Horoscope of Iskandar Sultan an a Cosmological Vision in the Islamic World", P.Souček "The Manuscripts of Iskandar Sulton" kabi tadqiqot ishlarida F.Kesharvarzning tarjimasini tahlil qilishgan. Shuningdek, Londonning Britaniya muzeyida "The Miscellancy of Iskandar Sulton" nomli qo'lyozma saqlanmoqda. Ushbu nodir qo'lyozma Muhammad Isa Waley, Ursula Sims-Williams kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, qo'lyozma 1410-1411 yillarda Muhammad al-Xalavi tomonidan yozilgan. Keyinchalik, xattot Nosir al-Katib tomonidan asar qayta ko'chirilgan[15:3-4 b]. Qo'lyozmaning diniy, tarixiy va nazmiy qismlari mavjud bo'lib, unda ikki yuzdan ortiq qasida va g'azallar keltirilgan. Shuningdek, Farruhiy, Manuchexriy, Nosir Xusrav, Salmon Sajavi, Amir Xusrav kabi uch yuzdan ortiq shoirlarning nomlari sanab o'tilgan. E'tiborga molik jihati shundaki, asarda astronomiya, astrologiya, geometriya, tibbiyot va islom huquqshunosligiga oid qimmatli ma'lumotlar ham keltirilgan.

### III.NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Iskandar mirzo 1404 yilda Amir Temur tomonidan Xamadonga hokim etib tayinlangan. 1410 yilda esa akasi Pir Muhammad mirzo vafotidan keyin Fors viloyati boshqaruvi uning qo'lga o'tgan. Iskandar mirzo mohir sarkarda bo'lishi bilan birga, o'zining isyonkorligi va itoatsizligi bilan mamlakatda tez-tez ichki nizolarni keltirib chiqarardi. Shunga qaramay, shahzoda Fors va Iroqda hokimiyatni qo'lga olganidan so'ng, mamlakat boshqaruvini mustahkamlashga va ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tartibga solishga harakat qilgan.

Uning mohir sarkarda, yetuk shoir hamda madaniyat homiysi sifatida shuhrat topishida Milkat Og'oning ta'siri yuqori bo'lgan. Iskandar mirzoning onasi Milkat Og'o Hizr o'g'lonxonning qizi bo'lib, Umarshayh mirzo vafotidan keyin Shohrux mirzoning nikohiga kiritilgan. Milkat Og'o ba'zi manbalarda "Mulk Og'o" ham deyilgan. Malikaning homiyiligi bilan Hirotda madrasa, "Doriushshifo" nomli kasalxona, "Dorulhadis" nomli xonaqoh, 2 ta hammom va maktablar qurilgan. Tarixiy manbalarda Hirotda shahri yaqinida ya'ni, "Darayi Zangiy va Childuxtaron" o'rtasida keng va katta rabot qurdirganlini aytib o'tilgan. Milkat Og'o 1440 yilda vafot etgan va Balx shahrida o'zi qurdirgan madrasaga dafn qilingan. "Milkat Og'o madarasasi" XVI asrning ikkinchi yarmida ham mavjud bo'lib, madrasa ta'mirtalab ahvolga tushib qolgan edi[16:9 b].

Temuriylar davrida shakllangan adabiy muhit Andijon saroyini ham chetlab o'tmagan. Zero, shu saroyda tarbiya topgan Iskandar mirzo she'riyat va ilm-fanga befarq bo'lmagan. Xususan, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida Iskandar mirzo haqida quyidagi fikrlarni yozadi: "Sulton Iskandar ham nabiradur...Va Sulton Iskandarni derlarkim, tab'i nazm erdi. Va bu tuyuqni andin naql qildilarkim:

To'lin uyg'a nisbat ettim yorug'mi,  
Ul xijolatdan kam o'ldi yorumi.  
Tori mo'yunging zakotin men beray,  
Yo Misrni, yo Halabni yo Rumi"[14:165-b].

Iskandar mirzoning qisqa hukmronligi davrida Sheraz ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan. Xususan, forsiy tilda ijod kiladigan adiblar bilan bir qatorda turkiy shoirlar ham bor edi. Ular orasida Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy kabi shoirlarni alohida qayd etish mumkin. Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror", "Gul va Navro'z" asarlarini Iskandar mirzoga bag'ishlab yozgan [15:14-b]. Shuningdek, shahzoda xattotlarga ham homiylik qilgan. Isfahondagi kutubxonasiga Ma'ruf Bag'dodiyini keltirib, unga saroy kutubxonasini boshqarishni topshirgan. Ma'ruf Bag'dodiy asli marvlik bo'lib, Xondamir "Habib us-siyar" asarida uni mohir hunarmand bo'lib, husnixati bilan mashhur bo'lganligini ta'kidlaydi. Muarrixning yozishicha, xattot avval Sulton Ahmad Jaloyirga xizmat qilgan, ikki o'rtada nifoq chiqib, Iskandar mirzoning saroyiga ketgan. Keyinchalik, esa Ma'ruf xattot Shohrux mirzo saroyida faoliyat olib borgan[16:489-490-b]. Shuningdek, Iskandar mizoning topshirig'i bilan 546 varaqdan iborat Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si ko'chirilgan. Bu nodir qo'lyozma Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Iskandar mirzoning tarix faniga qiziqishi yuqori bo'lgan. Xususan, Muiniddin Natanziy o'zining "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asarini shahzodaning homiyiligi ostida yaratgan. Bu ma'lumotni

## TARIX

Davlatshoh Samarqandiy ham tasdiqlab, o'zining "Tazkirat ush-shuaro" asarida: "Muiniddin Natanziy Sulton Iskandar davrida Iroqi Ajam va Forsda shuhrat topgan olimlardan jumlasidan bo'lib, Iskandar mirzoning maqomati va holati hamda tarixini yozgan", deb ma'lumot beradi [17:15 b]. "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy"ning qo'lyozma nusxalari Britaniya, Sankt-Peterburg, Parij kutubxonalarida saqlanmoqda. V.V.Bartold esa Natanziyning bu kitobini shartli ravishda "Iskandar Anonimi" deb atagan. Ushbu tarixiy asarning Parij kutubxonasida saqlanayotgan nusxasi esa Iskandar mirzoning amakisi Shohrux mirzoga bag'ishlab yozilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday chalkash holat Iskandar mirzoning Fors taxtidan tushirilishi yoki asarni qayta tahrir qilingan nusxasi, deb taxmin qilish mumkin. Iskandar mirzo ko'plab olimlarga homiylik qilgan va uning saroyida astronomiya, kimyo, geometriya va fanning boshqa sohalariga oid asarlar yaratilgan. Xususan, astronomiyaga oid G'iyosiddin Jamshid Koshiyning "Muxtasar dar ilmi hay'at", "Ravzat ul-munajjim", G'iyos Kirmoniyning "Oinayi Iskandariy" asari, kimyo faniga oid "Risolayi kibriti ahmar", "Muxtasar dar ilmi Iqlidus", kalendarlar va astrologiyaga bag'ishlangan "Marifat-i taqvim va usturlob" kabi asarlar shahzodaning homiyliги bilan yaratilgan. Bu esa shahzodaning ilm-fanga qiziqish doirasi naqadar keng bo'lganligidan dalolat beradi.

Iskandar mirzo fan, adabiyot va san'atga homiylik qilish bilan cheklanmasdan, bunodkorlik faoliyati bilan ham mashg'ul bo'lgan. Tarixiy manbalarda Iskandar Mirzo tashabbusi bilan Yazd shahri yaqinidagi Taft qishlog'ida tasavvuf arboblardan biri Shoh Ne'matulloh valiyga bag'ishlab masjid va xonaqoh bunyod etganligi qayd etiladi [18:190 b]. Bizning fikrimizcha, davrida tasavvuf olimi Shoh Ne'matulloh valiy nomiga atab qurilgan bu imoratlar shahzodaning tasavvuf ilmini ham o'rganganligidan dalolat beradi.

## IV.XULOSA.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Iskandar mirzo o'zining qisqa hukmronligi davrida fan va madaniyatning ko'plab sohalarini rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Iskandar mirzoning madaniy hayotdagi bevosita ishtiroki va homiylik faoliyatini tarixiy manbalar asosida o'rganib, uni ijodkor shaxs va madaniyat homiyi sifatidagi siymosini yaratish uchun yetarlicha asoslar mavjud. XV asr boshlarida markaziy Eronning Sheroz va Isfahon shaharlarida o'ziga xos adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishi Iskandar mirzo saroyida to'plangan olimu-fuzalolar faoliyati bilan bog'liq. Ushbu ilmiy-adabiy muhitning mevalari bo'lmish ilmiy va badiiy asarlar yaratilishida shahzodaning xizmati katta bo'lganligini alohida ta'kidlash mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони ("Шоирлар бўстони") Форс-тожик тилидан Б.Ахмедов тарж., Шейрларни С.Рахмон тарж.қилган. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 224 б.
2. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Фулом Каримий. Т.: "Ўзбекистон". 2011. – 264б
3. Хафиз-у Аbru. Извлечение из "Зубдат ут-таварих". // перевод с персидского А.Буриева. /Материалы по истории Средной и Центральной Азии X – XIX вв. –Т.:Фан, 1988.С.143-148.
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж.И.Қ.И-III.1429-1470 йил воқеалари. – Т.:Ўзбекистон. 2008. – 832 б.
5. Хондамир Гиёсиддин ибн Хумомиддин. "Хабиб-ус сийар фи ахбори афроди башар"/Форс тилидан таржима, мақаддима муаллифлари – Жалил Ҳазрақлов, Исмоил Бекжонов, изоҳлар муаллифлари – Ашраф Ахмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: "Ўзбекистон". 2013. – 1272б
6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер.предис.примеч.и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Т.: "Фан", 1980. – 346 б.
7. Бартолд.В.В. Определение "Анонима Искандере" //Соч. Т.8, –М.,1973.С 481.
8. Ricu.Ch. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Muzeum.Vol.III.London. 1883.P.1062a-1064b.
9. Shiro Ando. Timuridishe Emirewachdem Mu'izz al-ansab. Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1992. S.51.
10. P.Soucek. Eskandar b 'Omar-Shayx b' Timur: A Biography //Oriente Moderno.Volume 1, Roma, 1997. P. 73-87.
11. T.V.Lents.Timur and the Princely Vision:Persian Art and Culture.//. Leiden and New York, 1992. pp.116-131.
12. Anna Coizzo. The Horoscope of Iskandar Sultan an a Cosmological Vision in the Islamic World.// Journal of Royal Asiatic Society. 1984. P.197-202
13. Fateme Keshevarz. The Horoscope of Iskandar Sultan. //Journal of Royal Society.№2. 1984. P.197-202.
14. Ursula Sims-Williams. "The Miscellany of Iskandar Sulton". // British Library. London. 2014. P.12.
15. Файзиёв.Т. Темурий маликалар. –Т.: Абдулла Қодирий, 1994. –Б.41.
16. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Нашрга тайёрловчи.С.Фаниева. – Т.:Фафур Фулом, 1966. – 216 б.
17. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. –Б.14.
18. Хондамир Гиёсиддин ибн Хумомиддин. "Хабиб-ус сийар фи ахбори афроди башар". – Б. 489-490.
19. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Б.15
20. Ислам. Энциклопедический словарь. Москва: Наука, 1991.

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)